

DARYO TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK-EKOLOGIK JIHATLARI (BEKOBOD HUDUDI MISOLIDA)

G'ofur Tovbayev

Guliston davlat universiteti

Ekologiya va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: gofurxperia@gmail.com

Fotima A’zamqulova

Guliston davlat universiteti

Ekologiya va geografiya kafedrasi talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola Bekobod shahri va tumanida daryo turizmini rivojlanirishning shart-sharoitlari hamda istiqbollari yoritilgan. Sirdaryo daryosi bo‘yida turistik zona shakllantirish va uning atrof-muhitga, insonlar sog‘lig‘iga ta’sir doirasi asosida tashkil etish takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, reakratsiya, sog‘lomlashtirish markazlari, turistlar, kurort, sanatoriya

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ РЕЧНОГО ТУРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ БЕКОБАДСКОГО РАЙОНА)

Аннотация:

В данной статье описаны условия и перспективы развития речного туризма в городе и районе Бекобад. Представлены предложения по формированию туристической зоны на берегу реки Сырдарья и ее влиянию на окружающую среду и здоровье человека.

Ключевые слова: туризм, рекреация, здравницы, туристы, курорт, санаторий.

GEOGRAPHICAL AND ENVIRONMENTAL ASPECTS OF RIVER TOURISM DEVELOPMENT (BY THE EXAMPLE OF BEKOBAD DISTRICT)

Annotation:

This article describes the conditions and prospects for the development of river tourism in the city and district of Bekobad. Proposals are presented on the formation of a tourist zone on the banks of the Syrdarya River and its impact on the environment and human health.

Keywords: tourism, recreation, health resorts, tourists, resort, sanatorium.

Kirish

Insoniyat XXI asr – fan va texnologiyalar hamda barcha sohaning globallashuv asrida yashar ekan, tabiat-jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro muvozanatni saqlay bilishi hamda aholining jadal ko‘payib borishini hisobga olgan holda uning moddiy ehtiyojlarini tabiatdan oqilona foydalangan holda qondirishi kerak. Shu boisdan Respublikamizni barcha hududlarini bor imkoniyatlaridan foydalangan holda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilyapti va amalga oshirilayapti. Hozirgi davrda sanoat, qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatish, logistika tarmoqlari insoniyatni asosiy band qilgan sohalardan biriga aylanyapti. Bu sohlarni takomillashtirish evaziga zamonaviy yangi soha – turizm barqaror rivojlanishni boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ-232 “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135 “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-fevraldagi “Turizm mahallalarida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 86-sonli Qarori turizm sohasini rivojlanish uchun alohida e’tibor sanaladi[1]. Turizm tabiiy va tarixiy turlarni o‘zida birlashtiradi. Turizmga berilgan ta’riflarni tahlil qilgan holda A.Nigmatov turizmga quyidagicha ta’rif bergan, jumladan: **Turizm** – shaxs(lar)ni bo‘s sh vaqtlarida doimiy yashab turgan joylaridan 24 soatdan kam bo‘lmagan va 6 oydan ko‘p bo‘lmagan davr oralig‘ida (kamida bir kecha qolish) haq to‘lanadigan

faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda, madaniy, ma’rifiy, kasbiy, diniy, sport va boshqa maqsadlarda boshqa mintaqaga yoki davlatga vaqtincha yashash uchun jo‘nab ketishi va sayohatning boshlang‘ich nuqtasiga qaytish bilan yakunlanadigan sayohatlar, deb takidlagan[2]. A.Soliyev va M.Usmonovlar turizmga quyidagicha tarif bergan: **Turizm**- aholining o‘zi yashab turgan mintaqah hudud, o‘lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish maqsadida uyushtirilgan reakratsion faoliyat turiga sayohat[2].

1963-yilda BMTning Xalqaro turizmga oid konferensiyasiga muofiq turist deb, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib kamida 24 soat o‘sha yerda turib, turistik xizmatdan foydalangan kishiga aytildi (Mironenko, Tverdoxlebov,1981).

Turizm ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, mehnat resurslaridan foydalanishda va aholining ijtioiy hamda jismoniy muommolarini hal qilishda, sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman O‘zbekiston hududida turizmni rivojlanтиrish uchun zarur shart-sharoitlar keng, uning birgina Osiyo va Yevropaga tutashligi sababli turistlarni jalb qilmay qolmaydi[3].

Asosiy qism. Bekobod tumani tabiiy geografik jihatdan Mirzacho‘l dashtining sharqiy qismida, Sirdaryoning allyuvial tekislik qismi bilan to‘rtlamchi davrdagi Janubiy Tyanshan tog‘larining prolyuvial tekislik qismi tutashgan joyda joylashgan[5]. Siyosiy-ma’muriy jihatdan Toshkent viloyatining eng janubida joylashgan. Hududdan Sirdaryo oqib o‘tadi (1-rasm). Daryo O‘rta Osiyo va O‘zbekistondagi eng katta ikki daryoning biri. Sirdaryo Bekobod shahri va tumanidagi zavod va fabrikalarni suv bilan taminlash vazifasini ham o‘z zimmasiga olgan.



1-rasm. Sirdaryo havzasi.





Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st July, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Daryoga Farhod GES-1 qurilgan. GES hudud va unga qo'shni viloyatlarni ham elektoroenergiya bilan taminlab kelmoqda (2-rasm). Shu kabi daryoning insoniyat oldidagi vazifalarini sanasak tugamaydi. Ayniqsa oldingi yillar ham va hozir ham insonlarning xo'jalik ehtiyojlari uchungina foydalanib kelishi, daryoga reakratsion resurs sifatida qarashdan yiroqlashtiradi. Ya'ni daryodan faqat ekin maydonlarini sug'orish, zavod va fabrikalarni suv bilan taminlash kabi vazifalar uzoq o'tmishdan beri yuklab qo'yilgan.. Bekobod hududidagi Sirdaryo bo'yiga oromgohlar, sog'lomlashtirish markazlari(sanatoriyalar) kurort va turistik zonalar, plyajlar va shu kabi bir qancha madaniy hordiq chiqarish markazlarini bunyod qilish lozim. Va aynan bunday markazlarni daryobo'yи relyefiga, hududning tabiiy sharoitiga mos ravishda tashkil etish maqsadga muofiqdir. Albatta bu maskanlarni barpo qilishdan oldin hududning tabiatini, iqlimini, flora va faunasini o'rganish kerak. Bekobod shahri atrofidagi atmosfera bir ozgina og'irroq hisoblanadi. Bunga sabab Bekobod shahrida joylashgan metallurgiya, sement va bir qancha ishlab chiqarish korxonalarining ish faoliyatidir[4].



2-rasm. Bekobod tumanidagi Sirdaryo suv inshooti.

Shunday korxonalarda mehnat qiluvchi insonlar sog'lig'i bilan muammolar yuzaga kelishi tayin[6], [7]. Ular bir muddat dam olish uchun uzoq masofali sanatoriyalarga borishiga to'g'ri kelmoqda. Shu kabi ijtimoiy harakatlarni ko'zdan kechirgan holda Bekobod shahri va tumanidagi daryobo'yи hududlariga kurort(



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st July, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

nemischa shifobaxsh joy, maskan) zonalar va madaniy xordiq chiqarish plyajlari, sog'lomlashtirish markazlari barpo qilish natijasida insonlarning yuqorida keltirilgan muammolariga yechim topilgan bo'lardi. Bekobod tumanidagi Nayman qishlog'i Sirdayoning bo'yida qo'nim topgan go'zal maskandir. Faqat bu hududda ham turistik zonaning tashkil etilmaganligi daryoga faqat xo'jalik ehtiyojlari uchungina qaralganligidir. Qadimdan insonlarni daryodan ekinlarni sug'orish, yerlardagi yaxob ishlari va chorva mollarini sug'orish kabi ishlar uchun foydalanganlar[8]. Agar bu hududlarda ham turistik markazlar bunyod qilinsa insonlarning turmush tarzida ham bir oz yengilliklar yuzaga kelgan bo'lardi. Daryodan foydalanishda asosan mahalliy ko'lamdagi sun'iy suv inshoatlari (kichik kollektor va ariqlar) asosan qishloqqa ekinlarni sug'orish uchun kerak bo'lib kelgan. Suv inshoatlarining yana bir qiziq jihatni shundaki undan hozirda yoshlar "Baydarka" sport turi orqali foydalanib ulkan zafarlarni qo'lga kiritgan (3-rasm).



3-rasm . Sirdaryoda baydarka sportchilari.

Xulosa va takliflar. Turizmni rivojlantirish uchun har qanday hududda bir qancha omillar yuzaga keladi. Umuman olganda O'zbekiston hududida reakratsion turistik resurslar ko'p. Faqat turizmni rivojlantirishda bir qancha muommolar haligacha o'z yechimini topgan emas. Shu sababli Prezidentimizning 2023-yil 26-apreldagi PQ-135 "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi Qarorini doirasida hudud bo‘yicha quyidagi ishlab chiqilgan takliflar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi: hududning tabiiy rekreatsion resurslarini hisobga olib daryo turizmi, sport turizmi, gastronomik turizm, ekoturizm sohalarini rivojlantirish va ushbu sohalar negizida “UZMILLIYTOURISM”ni tadbiq qilish[9].

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Turizm sohasiga oid amaldagi me’yoriy qonun hujjatlari: <https://lex.uz/uz>
2. M. R. Usmonov . Turizm geografiyasi . Samarqand 2020. 11-190 betlar
3. Хидирилиев, К. Э., Ахунбабаев, М. М., Товбаев, Г. З., & Эгамкулов, Х. Э. (2021). ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ. Экономика и социум, (11-2 (90)), 605-611.
4. Хидирилиев, К. Э., Ўғли, Т. Ф. З., & Холдоров, Д. Б. Ў. (2022). ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ ҲУДУДИЙ ЖИҲАТЛАРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). Science and innovation, 1, 136-142.
5. Zulkaynar o‘g T. G. et al. SIRDARYO VILOYATI GEOGRAFIK O ‘RNI, CHEGARALANISHI VA UNING GIS TAHLILI //World scientific research journal. – 2023. – T. 16. – №. 1. – C. 12-16.
6. Alimqul o‘g‘li U. O. et al. BEKOBOD SEMENT ZAVODI, UNING ATROF-MUHITGA TA’SIRI (BEKOBOD TUMANI, SHIRIN SHAHRI, BOYOVUT, XOVOS TUMANLARI) //World scientific research journal. – 2023. – T. 13. – №. 1. – C. 35-39.
7. Tovbayev G. Z. GLOBAL EKOLOGIK MUAMMONI HAL QILISH YO ‘LLARI //Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – C. 279-283.
8. Toxir o‘g‘li Q. Z. et al. GLOBAL VA GEOEKOLOGIK MUAMMOLAR //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 1-7.
9. Erkaboyevich E. H. et al. AYDAR-ARNASOY KO ‘LLAR TIZIMIDA «UZMILLIYTOURISM» NI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI //World scientific research journal. – 2023. – T. 15. – №. 1. – C. 178-181.